

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 4 (67273)
2020-yil 27-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

AVSTRALIYADAN XUSHXABAR

Tengdoshingiz Bekzod Nuriddinov Avstraliyaning Gold-Kost shahrida o'tkazilgan Janubi-Sharqiy Osiyo matematika olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritib, yurtdoshlarimizga tabrik yo'lladi.

Buxoro viloyati, Qorako'l Xalqaro matematika maktabining 10-sinf o'quvchisi Bekzodjon mazkur xalqaro fan olimpiadasida qatnashish uchun 18 davlatdan kelgan jami 1044 ta ishtirokchi ichida eng yuqori pog'onani egalladi. Poytaxtimizdagi Vestminster Xalqaro maktabining 6-sinf o'quvchisi Horun Saliyev esa bronza medalni qo'lga kiritdi.

Gazetxonlarimiz nomidan g'oliblarni tabriklaymiz va bo'lajak matematiklarimizning muvaffaqiyatlari bardavom bo'lsin, deymiz!

KALQARO FESTIVALDA O'QUVCHILARIMIZ 3-O'RINGA SAZOVOR BO'LIHDI



Joriy yilning 22-23-yanvar kunlari Rossiya Federatsiyasi-ning Nijniy Novgorod shahrida «ROBOFEST-2020» xalqaro robototexnika, IT va DIV olimpiadasi o'tkazildi. Mazkur festivalda O'zbekistonning IT park «Uz_rob_Up» jamoasi 70 dan ortiq davlatlar orasida 3-o'ringa sazovor bo'ldi.



«TONG YULDUZI» TOPQIR O'QUVCHINI TAQDIRLADI

Hurmatli o'quvchilar! Gazetamizning 3-sonida berilgan test savollariga Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 62-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi Farhodbek Toshpo'latov birinchilardan bo'lib to'g'ri javob yo'lladi.

G'olibimizni qutlash uchun mazkur ta'lim maskaniga tashrif buyurar ekanmiz, ko'plab iste'dodli o'g'il-qizlar-u bo'lajak sportchilar bilan tanishdik. Guvoh bo'lib turganingizday, bugun Farhodbek zukkoligi bilan o'z maktabini butun respublikaga tanitish imkoniga ega bo'ldi. Siz ham tengdoshingiz kabi bilimli va topqir bo'lsangiz, marhamat, gazetamizning navbatdagi sonlarida beriladigan test savollariga kechikmasdan javob yo'llang. Omad sizga yor bo'lsin!



Aziz «Tong yulduzi» muxlislari! Yangi (94) 645-90-70 telegram raqamimizga o'z maktublaringiz, fikr-mulohazalaringizni yo'llang!

«ALVIDO, BOLALIK!»NI O'QIB...

Yaqinda 11-sinf o'quvchilariga «Baxtli bolalik» mavzusida insho yozdirdim. Ular bu mavzuda to'lib-toshib, zavq bilan dil so'zlarini yozishdi.

Insholarni o'qib, juda quvondim. Ularning barchasida beg'ubor bolalik, mamnunlik, baxtliorlik hissi limmo-lim edi. Shu tobda Tohir Malikning «Alvido, bolalik!» asari yodimga tushdi. Asarning asosiy g'oyasida nazarda tutilganidek, hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, ba'zi bolalarni atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantirishi mumkin. Kitobdagi bosh qahramon Qamariddinning fojiasiga ham mehrsizlik, e'tiborsizlik sabab bo'ladi. Asarda bola tarbiyasida oilaviy muhit alohida ahamiyat kasb etishi e'tirof etilgan. Qamariddinni onasi tug'ruqxonaning o'zidayoq tashlab ketadi va u Mehribonlik uyida katta bo'ladi. Ko'plab nohaqliklarga, xo'rliklarga uchraydi. Shu

bois, o'spirinlik chog'ida kimlardandir o'ch olishga intiladi. Voqealarni o'qigan o'quvchi asarning mohiyatini tushungach, bugungi yoshlar naqadar baxtli avlod ekanini anglaydi.

Chindan ham bugun siz aziz o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Besh tashabbus doirasida bo'sh vaqtningizni mazmunli va foydali o'tkazishingiz ta'minlangan. Baxtli bolalikka poydevor yaratgan Yurtboshimizdan behad minnatdormiz.

Shahlo SHAROPOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
6-umumta'lim maktabi direktori



Kuni kecha maktabimizda tuman xalq ta'limi bo'limi bilan hamkorlikda 276- va 316-umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun

BILIMU FARZANDLAR BIZNING FAXRIMIZ

shiori ostida o'quv-seminar tashkil etildi.

Ushbu seminarni tuman xalq ta'lim bo'limi boshlang'ich sinflar uslubchisi Dono Mirzaahmedova kirish so'zi bilan ochib berdi. Seminar 4 ta sho'bag'a bo'lingan holda o'tkazildi. Bilim maskanimizning boshlang'ich sinf o'qituvchilari Saodat Umarova, Nargiza Karimova, Nazokat Usmonova «O'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi PIRLS, PISA, TIMSS xalqaro dasturiga tayyorgarlik» mavzusida, «Sinfidan tashqari o'qish» mavzusida Gulnora Mirzaaliyeva, Zilola Shorahimova, Nilufar Nosirova ma'ruza qilgan bo'lsa, 316-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari – 4-sinf ona tili darsligida «Gap va so'z tarkibi» mavzusida Oqgul Fayzullayeva, Muharram Sharipova, 3-sinf matematika darsligida «Kasr tushunchasi» mavzusida Go'zal Poshshayeva, Zilola Rasulovalar ma'ruza qildi.

Seminar yakunida 276-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Aziza To'xtayeva rahbarligidagi 4-«E» sinf o'quvchilari ishtirokida «Qor malikasi» nomli sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Ruslan VALIYEV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
276-umumta'lim maktabi direktori

USTOZNING KAYFIYATI QANDAY?

Aziz o'quvchilar! Siz hech ustozingizning kayfiyati bilan qiziqqanmisisiz? Axir har kuni har qanday vaziyatda ko'tarinki ruhda dars o'tish oson emas.

Ammo biz ruhshunoslarning tavsiyamizga ko'ra, o'qituvchilar har qanday holatda ham o'z kayfiyatlarini o'quvchilarga sezdirilmagan holda darsni davom ettirishlari lozim. Zero, jahlni jilovlay olmaydiganlarga nisbatan og'ir-vazmin fe'l-atvorga ega insonlar hamisha ko'proq hurmatga sazovor bo'ladi. Ammo oranzingizda shunday o'quvchilar ham borki, dars avvalida ko'tarinki kayfiyatda bo'lgan o'qituvchining ruhiy holatini salbiy tomonga o'zgartirib yuboradi. O'yinqaroqlik, ustozga nisbatan behurmatlik dars jarayoniga xalaqit qiladi. Natijada, ustozning asosiy vaqti ularga tanbeh berish bilan o'tadi, boshqa o'quvchilarning mavzuni tushunishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lum bo'lishicha, Koreya mamlakatida har bir korxonaga va tashkilotning ish boshqaruvchisi ertalab ishga kelayotgan xodimlarining qadam bosishidanoq uning kayfiyatini aniqlashga harakat qilishar ekan. Ularning fikricha, kayfiyati yaxshi bo'lmagan ishchi-xodimning ishida unum bo'lmas

ekan.

Ertalabki kayfiyat kun bo'yi insonning ruhiyatiga ta'sir etadi. O'qituvchining kayfiyati o'quvchilariga, o'quvchilarning xulqi, darsga munosabati esa ustozga ta'sir ko'rsatishi tayin. Shu bois,

o'qituvchi hamisha o'z holatini nazorat qila olishi, siz o'quvchilar esa hamisha ustozning mehnatlarini hurmat qilishingiz lozim. Bu ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Darslar maroqli va unumli o'tadi.



Rohatoy EGAMNAZAROVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi psixologi

BILASIZMI?..

Pedagog Doroti Dou Nolt bolalar o'zleri yashayotgan hayotda nimani ko'rsalar o'shani o'rganishlari haqida shunday deydi:

tanqid bilan yashasa, u ayblashni o'rganadi.
adovat bilan yashasa, u urishishni o'rganadi.
qiziqish bilan yashasa, u havas qilishni o'rganadi.
bag'rikenglikda yashasa, u sabrli bo'lishni o'rganadi.

AGAR BOLA

«BIRINCHI MUALLIM» meni to'lg'lantirib yubordi

Men Chingiz Aytmovning «Birinci muallim» nomli qissasini hayajon bilan o'qib chiqdim. Qissa qahramonlarining vatanparvarligi, shijoati meni to'lg'lantirib yubordi. Kitobni o'qib bo'lgandan keyin ham ancha vaqtgacha hayajonim bosilmadi. Shu sabab, bu asar mutolaasidan olgan taassurotlarimni qog'ozga tushirib, tengdoshlarim bilan o'rtoqlashishga qaror qildim.

Asardagi birinchi muallim – Dyushen kelajak avlodning porloq istiqbolli yo'lida jonini fido qilishga ham tayyor inson. U o'z kuchi bilan maktab ochadi. Qish kunlarida bolalarni opichlab suvdan kechib o'tgani haqida o'qir ekanman, muallimning fido-yiligiga, matonati-ga qoyil qoldim. U juda katta jasorat va saxovat sohibi. Bundan tashqari, Dyushen asar

qahramoni Oltinoyning kelajagi yo'lida o'zini qurbon qilgan bardoshli insondir. Muallim Oltinoyga ko'ngil qo'ygan bo'lsa-da, qizning kelajagi uchun sof tuyg'ularidan voz kechdi, faqat uning muallimi bo'lib qoldi. Nafaqat bu o'quvchisining, balki butun xalqining, o'z davrining Birinchi muallimiga aylandi.

Bu asarni hamma tengdoshlarim o'qishini, Dyushenning qalb kechinmalarini tinglashlarini xohlar-

dim. Bugun meni to'lg'lantirgan asar – «Birinci muallim» har bir tengdoshlarimning kitob javonidan joy olishini istayman!

Hayotda esa mening birinchi ustozim, ibrat olguvchi insonim dadajonimdir. Otam ham sharafli kasb egasi, o'qituvchilar. Qo'llarimdan tutib yozishni o'rgatgan ustozim esa Shahnoza Ismoilovadir.

Mening ilhom farishtam maktabimiz rahbari Aziza opa Boymurodovadir. Men fidoyi barcha muallimlarimga ta'zim qilaman!

Maftuna MAHMUDOVA,
Samarqand viloyati,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
28-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi



HOKIM BILAN UCHRASHDIK

Aziz tengdoshim! Yurtboshimizning Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqlari barchamizni to'lg'lantirib yuborgani rost.

Ayni kunlarda barcha hududlarda viloyat, tuman hokimlari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tayotganidan ham xabaringiz bor.

Bunday muloqotdan biz – «Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zolari ham bahramand bo'ldik. Tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar maktabida Boyovut tumani hokimi O'lmas Mamadaminov bilan o'tkazilgan uchrashuvda biz barcha istak va takliflarimizni aytish imkoniga ega bo'ldik. Biz uchun kerakli bo'lgan adabiyotlar bilan to'liq ta'minlanishimiz, internet tarmog'idan foydalanishimiz uchun sharoitlar yaratilishini so'raganimizda, hokim barcha takliflarimiz inobatga olinishini aytdilar. Biz esa yoshlarga qaratilayotgan e'tibordan ruhlaniib, kelajakda Vatanimizga, xalqimizga xizmat qiladigan inson bo'lib kamol topishga va'da berdik.

Diyora SAIDBEKOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
38-umumta'lim maktabining 8-sinf
o'quvchisi

ENG KATTA BOYLIK – AQL-ZAKOVAT

Bobojonim ikki sotixli hovlimizga issiqxona qurganlar. Issiqxonamizda asosan, limon, mandarin mevalarini yetishtiramiz.

Akam, men va singlimning o'z limon daraxtlarimiz bor. Ularni o'zimiz parvarishlaymiz. Mevali daraxtlarimiz serhosil bo'lishi uchun astoydil harakat qilamiz, navnihollarni mehr bilan o'stiraymiz. Bu ishda bobom va buvimning o'gitlariga amal qilamiz.

Bu yil issiqxonamizdagi limon va mandarin ko'chatlaridan mo'l hosil oldik. O'zim parvarishlagan ko'chatlardan olingan 150 kg mevalardan tushgan daromadga bobom va buvim o'zim xohlagan kitoblarni sotib olib berishdi.

Shuningdek, men gul ko'chatlarini ko'paytirishni yaxshi ko'raman. Gultuvaklarda turli gullarni ko'paytirib, dugonalarimga, qarindoshlarga sovg'a qilaman.

Maktabda a'lo baholarga o'qib, turli to'garaklarga qatnayman. Bobojonim: «Har bir hunarni ilm va aql, mehr bilan o'rgangin.

Qimmatli vaqtingni foydali faoliyatga sarf qilsang, xursand bo'laman. Uning shirin mevasini esa o'zing, albatta, ko'rasan», deydilar. Kattalarning o'gitlariga amal qilib, o'z maqsadlarimga erishishimga ishonaman.

Muzdalifabegim MUXTORALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
26-umumta'lim maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi



SINFIMIZDA BAYRAM BO'LDI

Pochta xodimi gazetaning yangi yildagi ilk sonini uyimizga olib kelganida, quvonib ketdim.

Uning har bir sahifasini katta qiziqish bilan o'qib chiqdim va o'zim ham sinfimizda bo'lib o'tgan bayram tabiri haqida xabar yozishga qaror qildim.

Yaqinda Vatan himoyachilari kuni manosabati bilan sinfimizda «Kichik posbonlar» nomli tabir bo'lib o'tdi. Unda mahallamiz faollari ishtirok etishdi. Biz ona Vatanimiz haqida qo'shiqlar kuyladik. Ayniqsa, sevimli san'atkorimiz Ozodbek Nazarbekovning «Mendirman o'sha» qo'shig'iga sahnalashtirgan raqsimiz barchaga manzur bo'ldi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Salomat opa Qurbondurdiyeva barchani bayram bilan tabrikledi. Tadbirni o'tkazishda esa ustozimiz Sanobar opa Quryozovaning xizmatlari katta bo'ldi.

Artur YUSUPOV,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
19-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi

Aziz o'quvchilar, bilim ummonini simirib, yangi zafarlar sari intilyapsizmi? Bu borada Sizga omad tilaymiz. «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy xodimlari ham siz bilan diydorlashishdan olam-olam zavq oladilar. Chunki har bir maktabda qanchadan qancha kitobsevar bolalar muvaffaqiyatlarga erishib, g'olibligini ko'z-ko'z qilishga shoshilmayotgan iste'dodlar bor-da. Biz ana shunday o'quvchilar bilan tanishishga, ularning yutuqlari haqida respublikamizdagi tengdoshlariga hikoya qilishga oshiqamiz.

Bu safargi muloqotimiz poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan bo'lib o'tdi.

USTOZLARIMIZ ZO'R DARS O'TISHADI, – deydi 7-«A» sinf o'quvchisi Abduqodir Abdullayev

Maktab rahbari Hilola Abdusattorova zalga yig'ilgan o'quvchilarga: «Kimlar mehmon bo'lib kelganini bilasizmi?» deya murojaat qilganida, bolalar bir ovozdand: «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari, deyishdi. Bu javobni eshitib, xursand bo'lib ketdik. Demak, ular gazetamizni muntazam o'qib borishadi. Mazkur ta'lim maskaniga biz ko'p kelganimiz, san'atga, adabiyotga, sportga oshno, kompyuter sohasini puxta o'rganayotgan o'quvchilar ishtirokida o'tgan tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlarda qatnashganmiz. Bu galgi suhbatimiz esa kitobning, she'riyatning ahamiyati

haqida bo'ldi. Tadbirda ijodga qiziqadigan o'quvchilar sahnaga taklif qilindilar. Xalqimiz suygan shoir

cha ifodali, yoddan o'qigan bolaning xotirasiga, talaffuziga qoyil qoldik. Bu she'riyat shaydosi 7-«A»

olamiga kirib qolganlarini bilmay qolishsin, degandilar. Ustozning o'g'itlari, mashg'ulotlari besamar ketmadi. Yaqinda tumanda o'tkazilgan «Eng yaxshi kitob taqdimoti» ko'rik-tanlovida to'garak a'zolari 1-o'rinni egallashdi. Bu tanlovda Abduqodirning sinfdoshi Fozil Buzrukxo'jayev ham o'zi yozgan she'rlari bilan qatnashib, barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

– Har bir kunimizni, har bir soatimizni besamar o'tkazmaslikka, darslarda faol bo'lishga intilamiz, kundaligimizni a'lo baholarga to'ldirishga, zahmatkash ustozlardan ko'proq bilim

inson hayotidagi ahamiyati hamda foydasini to'g'ri anglatadi.

– To'garakka katta qiziqish bilan kelaman, – deydi mamnun kayfiyatda 7-«B» sinf o'quvchisi Baxtiyor Komilov. – Buning uchun kompyuter sirlarini bizga mukammal o'rgatayotgan ustozimizdan minnatdormiz. Yaqinda yangi dastur orqali buklet tayyorlashni o'rgan-dim. Hademay ikki buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning taval-lud ayyomiga bag'ishlangan tadbirlar, ijodiy kechalar o'tkazamiz. Men shu sanalar munosabati bilan bukletlar



7-«B» sinf o'quvchisi Mo'mina Jaloliddinova «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» respublika tanlovining g'olibi bo'lganligidan nihoyatda faxrlandi.

Hamid Olimjon qalamiga mansub «O'zbekiston» she'rini boshidan oxiriga-

sinfda o'qiydigan Abduqodir Abdullayev ekan. Barcha fanlarni a'loga o'zlashtirayotgan bu o'quvchidan muvaffaqiyatlari sababini so'raganimizda, ustozlarimiz zo'r dars o'tishadi, deb javob berdi. Undagi she'riyatga ishtiyonni adabiyot fani ustози Dilorom Zufarova uyg'otgan ekan.

Abduqodir Dilorom opa rahbarlik qilayotgan «Drama» to'garagiga ham a'zo.

– Dastlabki mashg'ulotimizda ustoz she'rni ifodali o'qiganlarida, sinfimiz suv quygandek jim-jit bo'lib qolgan, – deydi Abduqodir. She'rni o'qib bo'lgach, Dilorom opa: «Siz shunday she'r o'qingki, tinglovchilarning tanasidan chumoli o'rimalagandek etlari junjikib ketsin. She'riyatning go'zal



olishga astoydil harakat qil-yapmiz, – deydi Abduqodir.

Shuningdek, maktabda «Kompyuter savodxonligi» to'garagi samarali faoli-

yasab, adabiyot ustozlarim-ga taqdim etmoqchiman.

Aziz o'quvchilar, mutolaa shunchaki o'qishni emas, balki o'qiganni qalbiga jo qilib olishni va unga amal qilishni taqozo etadi. O'qiganlarini qalbiga joylagani uchun «Qutadg'u bilig» muallifi Xos Hujob unvoniga musharraf bo'lgan, Alisher Navoiyni «She'riyat mulkingning sultoni» deya ulug'laymiz. Shunday ekan, olam jumboqlarini yechish uchun kalit vazifasini o'tab, insonning ma'naviy yuksalishiga yo'l ochadigan ilm o'rganishni, o'rganganlarimizga amal qilishni, bu borada ajdod-larimizdan o'rnak olishda davom etaylik.

TANISHIB QO'YAYLIK: ISMIM AHMADJON!



Salom, tengdosh do'stlarim! Sevimli asarimiz qahramoni Hoshimjon kabi o'zimizni tanishtirsam. Ismim Ahmadjon.

Shu desangiz, boshlang'ich sinfdagi a'lochi o'quvchilardan biriman. Bo'sh vaqtlarimda qo'shiq kuylashni yaxshi ko'raman. Shu sabab, maktabimizda o'tkaziladigan turli tadbirlarda ko'p qatnashaman. Yaqinda o'quv dargohimizda o'tkazilgan «Kitobxon oila» tanlovida onam bilan birga faol ishtirok etdim. Meni biror mashg'ulot turi bilan shug'ullanishga, tanlovlarda qatnashishga undaydigan ustozim – sinf rahbarimiz Nargiza opa G'aniyeva bo'ladilar. Bugun meni sevimli gazeta bilan do'stlashtirgan ham shu o'qituvchimdir. O'z oldimga qo'ygan maqsadlarim talaygina. Ularga erishgach, sizlar bilan o'rtoqlashish niyatim bor.

Ahmadjon IBODULLAYEV,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
244-umumta'lim maktabining 3-«G»
sinf o'quvchisi



«Mohir qo'llar» to'garagi a'zosi, 5-«V» sinf o'quvchisi Mira'zam Ma'murjonov to'garak rahbari Zohid Mamaturopovdan olgan sabog'i sabab turli tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda.

yat yuritadi. Unga tajribali o'qituvchi, xalq ta'limi a'lochisi Mavluda opa Toshmuhammedova rahbarlik qiladi. Bu to'garakka o'quvchilar juda qiziqib qatnashdilar. Sababi, ustoz kompyuterning

Nodira NAZAROVA

Zuhra NISHONOVA olgan suratlar

A BAD HAIRCUT

Yesterday, Sevara looked pretty. She was happy. She had long blonde hair. But, today. She got her hair cut. Now, she does not her hair at all. It is too short. She look like a boy. She feel sad. Her brother laughs at her. But her mom says she still looks pretty.

Choose the best answer

1. What is wrong?

- A) She does not like her hair;
- B) She can't wake up;
- C) She is having bad dream;
- D) Her friends laugh at her.

2. Which is not true?

- A) She is not happy;
- B) Her hair is black;
- C) Her hair is short;
- D) Her mother thinks she looks pretty.

3. When did she get her hair cut?

- A) Tomorrow;
- B) Yesterday;
- C) Today;
- D) In two days.

4. What does the word «It» mean in the story?

- A) The hairdresser;
- B) Her hair;
- C) The school;
- D) Her friend.



Dilnura AKHTAMOVA,

The pupil of school № 43, in Gijduvan district, Bukhara region

Match these pictures of sports equipment with their names and say what sports they belong to.



- A) A net and ball;
- B) A goal and ball;
- C) Skis, ski poles and ski boots;
- D) A racket and a shuttlecock;
- E) Swords;
- F) A bow and arrows;
- G) A barbell.

Farogat URAZMETOVA,

The pupil of school № 1, in Kushkupir district, Khorezm region

YUKSAKLIKKA BO'Y CHO'ZGAN BAYROQ

Yaqinda Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim maktabida O'zbekiston Triatlon Federatsiyasi tashabbusi bilan barpo etilgan ochiq sport majmuasi-ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Basketbol, ochiq mashq qilish anjomlari maydoni, yugurish yo'laklaridan iborat majmua endilikda mingdan ziyod o'quvchilarni o'z bag'riga jamladi. Quvonarlisi, ular orasida 200 nafar Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ham bor.

Tadbirda shahar hokimi sport yo'nalishida yutuqlarga erishgan o'quvchilarni taqdirladi.

Shu kuni Xudoyorxon o'rdasi yonidagi maydonga O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i o'rnatildi. 65 metr balandlikka bo'y cho'zgan Davlatimizning ramzi musaffo samo uzra hilpiradi. «Yurt bayrog'i, erkin shamolda hilpira» shiori ostida o'tkazilgan tadbirda shahar hokimi M. Usmonov so'zga chiqib, bugungi kunda Qo'qon shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik, obodlik ishlariga hamshaharlarimizning qo'shayotgan munosib hissasi haqida to'lqinlanib gapirdi.

18-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Roziyaxon Bahodirxonova «Bayrog'im» she'rini o'qiganida, g'urur-iftixorga to'la ovoz maydon uzra baralla yangradi.

Nurbek QIDIRALIYEV

BAYROG'IM

Bayrog'im – faxrimsan, iftixorimsan, 33 million xalqning suyangan tog'i. Sendadir buyuklik, senda jam iymon, Baxtli kelajakka to'la quchog'i.

Kubro bobom ko'zga surtgan tug'isan, O'zbekni birlikka chorlagan hilqat. Qalbda yonib turgan yurak cho'g'isan, Yurtim uzra mudom hilpira faqat.

Hilpirab tur dorilamon zamonlarda, Ona xalqim yuragida joni bo'l. Har farzanding, keksa-yu yoshning, Xonlardan merosi – hur Qo'qoni bo'!

Sen shavkat-u shonsan, ulug' saodat, Tinchlikka elchi bo'l, yov yo'lin to'sgin. Yurtboshim takror aytgan adolat, Vatan uzra erkin shamoldek esgin!

Roziyaxon BAHODIRXONOVA,
Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

USTOZ BO'LSAM DEYMAN

Har bir inson o'z maqsadlari sari dadil qadam tashlab, olg'a intiladi. Men bolaligimdan oq jonkuyar o'qituvchi bo'lishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yanman.

Buning uchun puxta bilim olishim, o'qituvchilarimday mehdaryo, mehnatkash bo'lmog'im kerak. Inson hayoti davomida bilim va ma'rifat bilangina o'z maqsadiga erishishi mumkin. Kelajakda men Shohista Abdurahmonova kabi o'quvchilarga ilm-u ma'rifat ulashuvchi muallim bo'lishni istayman. Maqsadim yo'lida olg'a borar ekanman, sizga ham orzu qilishdan to'xtamang, deyman, aziz do'stlarim!

Nozima YO'LDOSHEVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi
42-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

MAKTUB

Bugun yana sizni sog'indim, aka,
Qalbmida ilohiy bir kuy taralar.
Bir men emas, sizni kutgandek, go'yo,
Qishloqda ko'z tikib qolgan dalalar.

Onam ilib qo'ygan ketar chog'ingiz,
Tishlagan noningiz va go'zal surat.
O'tgan galgi yozgan maktubingizda,
Debsiz: – Men Vatanga qilaman xizmat!

Maktublar yozaman shamning nurida,
Faqat el-yurt deya yonsin dilingiz.
Sizga omad tilab, baxt tilab qolar,
Qishloqni Vatan deb bilgan singlingiz...

Shohsanam OMONOVA,
Farg'ona shahar, Erkin Vohidov
nomidagi ijod maktabining
10-sinf o'quvchisi

RAHMAT SIZGA, USTOZIM!



Ilm, saboq yo'lida,
Bizga ta'lim berdingiz.
Xatomizni ko'rsatib,
Bizni jondan sevdigingiz.

Sizni yaxshi ko'ramiz,
Aziz, qadrdon ustoz!
Yo'limizga mehringiz,
Erur nurdek poyandoz.

Komil inson bo'lganda,
Sizni albat eslaymiz.
Rahmat sizga, Ustozim,
Qoldirasiz yaxshi iz!

Sevinch AXMATQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Gulliston shahridagi
11-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi

TARBIYACHI – KELAJAKKA YETAKCHI

Ushla jajji qo'llarni,
Sen yetakchi bo'lasan.
Beg'ubor yuraklarga,
Zo'r yo'l boshchi bo'lasan.

Tanitasan oftobni,
Anglatasan kitobni.
Kelajak yo'llarida,
O'rgatasan odobni.

Qora ko'zlar kulgusi –
To'ldirsin bu olamni.
Shodon o'sib-ulg'aysin,
Bilmasin sira g'amni.

Gulbahor ISMOILOVA,
Yashnobod tumanidagi 147-maktabgacha
ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Har gal o'quvchilarim adabiyot fani xonasiga ko'tarinki kayfiyatda kirib kelishganida, mening shijoatim yanada jo'shib ketadi. Ana shunday g'ayrat-u mamnunlik bilan darsni boshlar ekanman, bolalagimda o'zinning ham sevimli fanim ona tili va adabiyot bo'lganini eslayman. Bu fan chindan ham insonning ong-u shuurini ilm ila to'ldirishi bilan birga, ko'ngil torlarimizni ham chertib o'tadi.

ADABIYOTNI SEVGAN BOLA

Ayniqsa, mavzuni to'rt misra she'r yoki hikmatli so'zlar bilan boshlaganimda, o'quvchilarimning menga qalban yaqinlashganini his etaman. 5–6-sinf o'quvchilariga ertaknamo tarzda, yuqori sinflarga mavzuga oid misollar keltirish orqali dars o'tsam, ularning qiziqishlari yanada ortadi. O'quvchilarimni Abdulla Qahhorning «Qorako'z majnun», «Bemor» hikoyalari, Odil Yoqubovning «Muzqaymoq», O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» kabi asarlariga bag'ishlangan mavzular juda qiziqtiradi. Men esa ularga bu asarlarni to'liq o'qib chiqishlarini tavsiya qilaman.



Shuningdek, maktabimizda adabiyot ixlosmandlari uchun «Chashma» to'garagi faoliyat yuritmoqda. Unga rahbarlik qilarkanman, mashg'ulotlarda har bir o'quvchining ko'nglidagi nozik tuyg'ulariga quloq tutib, qalbidagi dil izhorlarini oqqa ko'chirishni o'rgataman. Zero, ijodkor, adabiyotni sevgan bola hamisha ezgulik olamida yashab, Vatanning ravnaqi, farovonligiga hissa qo'shadi, degan umiddaman.

Shoira JUMASHEVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
67-umumta'lim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

TOPIB OLINGAN KITOB

(Hikoya)

Bir kuni maktabga ketayotganimda, yo'l chetida yotgan kitobga ko'zim tushdi.

Uni asta qo'limga olib, atrofdagilardan kitob kimniki ekanini surishtirdim. Hech kimdan javob bo'lmagach, kitobni papkamga solib, maktabga olib ketdim. Dars boshlanishiga biroz vaqt borligidan foydalanib, topib olgan kitobimni o'qiy boshladim. U juda qiziqarli ekanligidan vaqtning qanday o'tganini ham sezmay qolibman. Shunday qilib, dars boshlandi. Men dars davomida ustozimga kitob topib olganimni aytammikin, deya o'yladim. Qo'ng'iroq chalingach, ustozimning yoniga kelib gap ochdim. Birovning buyumini so'ramay olib xato qilmadimmikin, deya so'radim. O'qituvchim qo'limdagi kitobni ko'zdan kechirdilar-u, noto'g'ri ish qilmaganimni, endi bu kitob barchamizga xizmat qilishini tushuntirdilar. Ushbu «topilma» sinfimizdagi kitob javonidan joy oldi. Sinfdoshlarim bilan bu asarni navbatma-navbat o'qib chiqishni rejaladik.

Tolibjon MIRZAJONOV,
Andijon viloyati, Andijon tumani

Ibrohimjon har safar shamollab qolganida, tuzalib ketishi qiyin kechadi. Faqatgina uzoq qarindoshi – hamshira Latofatxon halloslab yetib kelgandagina dard biroz chekinadi.

Latofatxon avval spirtli doka bilan Ibrohimning tomog'ini artadi, isitmasini o'Ichaydi. Kerakli muolajani qilib, yonboshiga kamida o'n kun igna sanchadi. Ilonning zaharli tishlarini eslatuvchi ignalar orqali dori-darmon kerakli joyga yetib boradi. «Ha, bejizga tibbiyot emblemasiga og'zidan zahar tomayotgan ilonning aksi tushirilmagan ekan-da», o'ylaydi Ibrohim.

Yana u uzun qish kechalari ko'rpaga o'ranib yotganida, tashqarida, sovuqda tong ottirayotgan «qanotli do'stlari»ni o'ylaydi: «Bechora qushlar qaysi bir kovakda tunni tongga ulashayotgan ekan?» Ular yashaydigan uy yaqinidagi bog'da qushlarning bir qancha turlari – maynalar, oq-qora «atlas ko'ylak»li xakkalar, qop-qora zag'chalar, xushro'y xurraklar, beozor musichalar, sayroqi bog' bulbullari bor. Ularning ko'pchiligi ko'p qavatli uylarning chordoqlarida yashaydi. Ulkan daraxtlar, chinor kovaklarida qishlaydi. Katta buvijoni aytardi: «Ona zamin degani hammani, hatto qushlarni ham, dov-daraxtlar-u ulkan kovaklari bilan yelkalab tura-di». Ko'p qatori Ibrohim ham bunday g'amxo'rlikdan benasib emas. Uning ulushiga havas qilsa arziydi.

G'ozil RAHMON,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

YANVAR - VATANPARVARLIK OYLIGI



Vatanparvarlik insonning o'z tug'ilib o'sgan yurtini himoya qilish yo'lidagi fidoyiligi, Vatanning har bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashdir.

Shiroqning Vatani yovlardan ozod qilish uchun jonini fido qilgani, To'marisning tengsiz shijoati vatanparvarlikning yorqin ko'rinishi ekanligini yaxshi bilasiz.

Maktabimizning 8-«A» sinf rahbari Nozima Tursunova hamda 5-«D» sinf rahbari Abdurahim Yo'ldoshev oylik doirasida qiziqarli mashg'ulotlar tashkil etib, Vatan himoyasiga doim shay turish lozimligini, xalq va millat manfaati yo'lida astoydil mehnat qilish kerakligini hayotiy misollar yordamida tushuntirib berdilar. 4-«A» sinf rahbari Dilafro'z Rahmonova hamda 10-«B» sinf YOCHT fani ustozlari Javlon Mahkamov tashkillashtirgan tadbir ham barchaga manzur bo'ldi. Unda 4-«B» sinf o'quvchilari Bibifotima Muhammadkarimova va Nurmuhammadyor Abdullayev o'zlari yod olgan she'rni ifodaladi o'qishdi. Tadbir davomida o'quvchilarning harbiy mashqlarni chaqqonlik bilan bajarishlari, qo'shiq va raqslar ijrosi tinch, osoyishta yurtda yashayotgan har bir o'g'il-qizda faxr, iftixor tuyg'usini uyg'otdi.

Javlonbek MAZOKIROV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
42-umumta'lim maktabining Yoshlar yetakchisi

Yashnobod tumanidagi 11-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari esa tarbiyachi opalari Muhabbat Dehqonova tashabbusi bilan «Qurolli kuchlar» muzeyiga sayohatga borishibdi.

Maktablarda «Vatanparvarlik oyligi» doirasida o'tkazilayotgan tadbirlarning keti uzilmayapti. Kuni kecha biz ham poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabida tashkillashtirilgan «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!» nomli tadbirida ishtirok etdik.



O'QUVCHILAR QASAMYOD QILISHDI

Sahnaga 7-8-sinf o'quvchilari harbiy kuy-qo'shiqlar ostida Vatanimiz bayrog'ini olib kirar ekanlar, barchani hayajon bosdi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Munira opa To'rayeva boshchiligida tayyorlangan sahna ko'rinishlari esa tomoshabin o'quvchilarni xulosa

chiqarishga chorladi. Ayniqsa, bo'lajak Vatan posbonlarining Davlatimiz bayrog'ini ko'zlariga surtib qasamyod qilishlari barchani to'lqinlantirib yubordi. Muqaddas Qobilova, Dono Saidova kabi ustozlar hamkorligida tashkillashtirilgan bayram tadbiri ana shunday ko'tarinki kayfiyatda o'tdi.

Sayyora QODIROVA



JAJJI HIMOYACHILAR



Mirzo Ulug'bek tumanidagi 504-MTTning «Olmaxon» nomli katta guruhida «Men ham Vatan himoyachisiman!» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Ushbu kechada kichkintoylarning shaxdam qadam tashlashlari, ona Vatan, tinchlik haqida yod olgan she'rlari barchaga birdek manzur bo'ldi. Ushbu tadbirga mahalla faollari, harbiylar va ota-onalari taklif qilindi.

O'ng-u so'lga adashmay burilayotgan, harbiycha buyruqlarni sidqidildan bajarayotgan kichkintoylarning murg'ak qalblarida ayni paytda Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari shakllanayotgan bo'lsa, ajabmas. Bolajonlar o'rtasida tashkil qilingan bellashuvda esa ularning jismoniy tayyorgarligi, rasm chizish qobiliyati, epcilligi, chaqqonligi sinovdan o'tkazildi. Bundan to'lqinlanib ketgan va kechadan katta taassurotlar olgan harbiy dadalar ham yosh vatanparvarlarga o'z esdalik sovg'alarini taqdim qilishdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

SUDOKU

9x9 kvadrat mustaqil 9 qismlarga teng bo'lingan. Turli qiyofadagi shakl blokdagi kataklarga 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni qoldirilgan raqamlar yordamida takrorlamasdan bir marta to'ldirsangiz, bo'yiga va eniga natija bir xil bo'ladi.

1

3			2			4		8
	4			6				1
8		7			2	5		6
				3				8
6			8		1			
		3				1		9
1	9			2				5
			6			3		7

2

	4		5		6			1
	9			8		6		
9			6					2
				1		4		
5			4		3			1
		4					7	
6								2
	7			9		1		
4			7		1		8	

3

		6			1			3
7								2
			2	5				6
	5				2			
9			4	3		2		7
		5				8		
5			6			8		4
	7				4			
	4		6		1			5

Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA

BILASIZMI?..

Birinchi muzlatgich bundan atigi yuz yil ilgari paydo bo'lgan. Unga qadar esa insonlar chuqur yerto'lalar va maxsus «muzliklar»dan foydalanganlar.

Ilk konditsioner esa muzlatgich asosida 1902-yilda amerikalik muhandis Uillis Karriyer tomonidan yaratilgan.

1903-yilda ixtirochi Erl Richardson bir necha uy bekalarini o'zining yangi kashfiyotini sinab ko'rishga chaqiradi. Bu kashfiyot nima ekan, deya siz ham qiziqayapsizmi? Bu elektr toki yordamida ishlaydigan dazmol edi.

Ilk cho'ntak soatlarini XVI asrda nemis ustasi Peter Genleyn ixtiro qilgan.

Internet manbalari asosida ZUHRA tayyorladi

FOYDALI MASLAHATLAR

Triko-taj koftangizni dazmol qilishga qiyalayapsizmi? Uni tekislashning tez va oson yo'li bor. Kiyimingizni vanna qabul qilayotganingizda, u yerga ilib qo'ying. Qarabsizki, bug' yordamida u g'ijimdan xalos bo'ladi.

Sel-lofanga sirka sepib, uni dush jo'mragiga o'rab qo'ying. Bir soatdan so'ng uni yechib oling. Bu yo'l bilan siz suv purkagichga yig'ilib qolgan qatlamlarni osongina tozalaysiz.

Tayyor bo'lgan pitssa qolipidan oson ajralishi uchun gaz pechidan olingan qolipni bir necha daqiqaga nam sochiq bilan o'rab qo'yish mumkin.

Pishiriq va pechenyelarning yumshoqligi saqlanishi uchun ularni issiqligida matoga o'rab qo'ying.

Sabzi tezroq pishishi va rangini saqlab qolishi uchun suvga bir nechta chindim iste'mol sodasi soling.

Zarqog'oz bilan shisha idishlarni yaltiratib tozalash mumkin. Qog'ozni sharshaklida o'rab, kirsovun bilan ko'pirtirib yuving.

Gaz pechini pishiriq pishirishdan 10 daqiqa oldin, elektr pechkani esa 25 daqiqa oldin yoqib qo'yish kerak.

Qishga asrab qo'ygan kartoshkan-giz chirib ketmasligi uchun ularning orasiga bir dona lavlagi solib qo'ying.

NARGIZA tayyorladi

8

27-yanvar 2020

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 5231
Buyurtma - V 4036

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08